

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabridagi 606-sonli qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi **Nizomga asosan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ga topshirmoqchi bo'lgan** Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish uchun talabgorlar uchun tayyorlangan

NAMUNAVIY SUHBAT SAVOLLARI

60410100 - "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

1. Ichlab chiqarish harajatlariga nimalar kiradi?
2. Inflyatsiyaning ma'nosini tushuntirib bering.
3. Byudjet tashkiloti va unga qaysi tashkilotlar kiradi?
4. Xo'jalik hisobi necha turga bo'linadi?
5. Auditorlik kasbi haqida tushunch bering
6. Iqtisodiyot tahlilida qo'llaniladigan qanday usullarni bilasiz?
7. Asosiy vositalarning dastlabki qiymati deganda nimani tushunasiz?
8. Audit deganda nimani tushunasiz?
9. Buxgalteriya hisob shkalalari nechta va ular qaysilar?
10. Auditorlik tashkilotlari qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?
11. Asosiy vositalar deb nimaga aytiladi?
12. Schyotlar tizimi nima?
13. Asosiy vositalar shyotiga misol keltiring?
14. Nomoddiy aktivlar nima?
15. Amortizatsiya deganda nima tushuniladi?
16. Asosiy vositalar balansda qanday qiymatda aks ettiriladi?
17. Passiv schyotlarga misol keltiring?
18. Buxgalteriya hisobi ob'ektlariga nimalar kiradi?
19. Aylanma mablag'larni aytib bering
20. Inventarizatsiya o'tkazish qaysi BHMSga asosan o'tkaziladi?
21. Hisob registrilarida xatolarning to'g'rilash usullari.
22. Kassadan dividend berilganda qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?
23. Kassadan ish haqi berilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
24. Korxonada kassadan xizmat safari uchun naqd pul berilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
25. Mol yetkazib beruvchilarga qarz valyuta schyotidan o'tkazib berilganda qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?
26. Asosiy vositalar bepul olinganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
27. Tayyor mahsulot tannarxi hisobdan chiqarilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
28. Kalkulyatsiya nima?
29. Davr xarajatlari nimalar kiradi?
30. Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning mehnat haqqi xarajatlarining xisoblanishi qanday buxgalteriya yozuvlarida aks ettiriladi?
31. Inventarizatsiya nima uchun kerak?
32. Olingan materiallar uchun mol yetkazib beruvchilarga pul to'landi. Bu xo'jalik jarayoni buxgalteriya balansidagi qaysi tip o'zgarish turiga kiradi?
33. Ustav kapitali korxonada balans qaysi tomon va bo'limida joylashadi?
34. Boshlang'ich balans nima maqsadda tuziladi?
35. Qanday holatda aktiv schet bo'yicha yakuniy qoldiq nolga teng bo'ladi?
36. Qanday holatda passiv schet bo'yicha yakuniy qoldiq bo'lmaydi?

37. Aktiv schetlar qanday schetlar bo'ladi?
38. Buxgalteriya hisoboti shakllarini sanab bering.
39. Boshlang'ich hujjatlarni tushuntirib bering.
40. Buxgalteriya hisobini tartibga soluvch me'yoriy hujjatlarni aytib bering.
41. Hisob registri nima?
42. Moddiy javobgar shaxslar kimlar?
43. Buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan o'lchov birliklarini aytib bering.
44. Buxgalteriya hisobining usullarini aytib bering.
45. Ikkiyoqlama yozuv haqida nima bilasiz?
46. Buxgalteriya hisobi predmetini tushuntirib bering.
47. Asosiy vositalar bo'yicha qanday eskirish usullarini bilasiz.
48. Debitor qarzdorlik tushunchasini ma'nosini ayting.
49. Kreditor qarzdorlik tushunchasini ma'nosini ayting.
50. Mahsulot tannarxi tarkibiga qanday harajatlar kiradi?

60710600 - "Elektr energetikasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

1. Elektr toki to'g'risida tushuncha bering.
2. Om qonunini tushuntiring.
3. Aluminiy va misning xossalari.
4. Dielektriklar haqida tushuncha bering.
5. Sinxron mashinalarning qanday turlari mavjud.
6. Asinxron mashinalarni ish rejimlarini aytib bering.
7. O'lchov xatoliklari deganda nimani tushunasiz.
8. O'lchov transformatorlarining vazifalarini tushuntirib bering.
9. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari.
10. Geotermal va shamol elektr stansiyalari.
11. Elektr iste'molchilarni ishonchlilik bo'yicha tabaqalanishi.
12. Elektr ta'minot sxemalari.
13. Transformatorlar sovitish tizimi montaji.
14. Ajratgichlar haqida ma'lumot bering.
15. Yerga ulash qurilmalar montaji qanday amalga oshiriladi?.
16. Reaktorlar montajini gapirib bering.
17. Havo liniyalarini o'ta kuchlanishdan himoyalash qanday amalga oshiriladi?
18. Sinxron generatorlar haqida tushuncha bering.
19. Elektr stansiya va nimstansiyalarda xususiy ehtiyoj manbalari.
20. Elektr podstansiyasi nima uchun xizmat qiladi?
21. Elektr energiyani o'zgartirish va taqsimlash uchun nima qilish kerak?
22. Elektr qurilmaning ishonchliligi nima?
23. Qurilmaning belgilangan funksiyalarni talab etilgan vaqt davomida o'zining me'yoriy ko'rsatkichlarini saqlagan holda bajara olish qobiliyati nima deyiladi?
24. Yong'in xavfining darajasi bo'yicha xonalarning zo'nalari necha sinfga bo'linadi?
25. Elektr ta'minotining talab etiluvchi ishonchliligi bo'yicha iste'molchilar nechta toifaga bo'linadi?
26. Taqsimlovchi punkt nima?
27. Yig'uvchi shinalar, belgilangan sondagi yacheykalar va boshhqaruv yo'lagidan iborat bo'lgan seksiyalarga ajratilgan elektr uskunasi;
28. Transformatorli podstansiyada transformatorlarning soni odatda, nechtagacha bo'lishi mumkin?
29. Elektr tarmog'i korxonasining vazifasi nimadan iborat?
30. O'z qaramog'idagi elektr tarmog'ini ishlatish;
31. Podstansiyalarga tezkor xizmat ko'rsatishda xizmat ko'rsatishning nechta shakli qo'llanilishi mumkin?
32. Markaziy dispecherlik xizmatida qanday guruhlar mavjud bo'ladi?
33. Holatlar va tezkor-dispecherlik guruhlari;

34. Elektr tarmoqlari korxonasida texnik pasportlar qanday jihozlar uchun tuziladi?
35. Asosiy va yordamchi jihozlarning har bir turi uchun.
36. 1000 V gacha kuchlanishli havo liniyalari daraxtzor va ko'kalamzorlarni kesib o'tganda sim va daraxt yoki butalargacha kamida qancha masofa saqlanishi shart?
37. Havo liniyalarining burilish joylarida burchak tayanchlarining tirsaklari qanday holda joylashtiriladi?
38. Burilish burchagi bissektrisasi bo'ylab nimalarni joylashtirish mumkin?
39. 1000 V gacha kuchlanishli havodagi elektr uzatish liniyalarini ko'rikdan o'tkazish elektr montyor tomonidan qanday davriylikda amalga oshiriladi?
40. Metrologiya haqida nimani tushunasiz ?
41. Kirxgofning 1 qonuniga ta'rif bering
42. Kirxgofning 2 qonuniga ta'rif bering
43. Elektr motorlarning vazifasi nimadan iborat.
44. Elektr yuritma nima ?
45. Asinxron elektr motorlar qanday qismlardan iborat ?
46. Chastota o'zgartkich qayerda qo'llaniladi ?
47. Asinxron motorni ishlashini qanday usullari mavjud ?
48. Kloos formulasiga ta'rif bering ?
49. Ajratgichlar qanday tanlanadi ?
50. Transformatorlarning ishlash prinsipini aytib bering ?

60722600 - "Geodeziya va geoinformatika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha

1. Injenerlik geodeziyasi fanining mohiyati va vazifasi.
2. Topografik-geodezik qidiriv ishlari.
3. Chiziqli inshootlarni loyihalashda kameral trassalashni bajarish.
4. Trassani nivelirlash va undagi hisoblash ishlari.
5. Qayrilmalarni mukammal rejalash.
6. Plan va kartalarda yuzani analitik va grafik usulida aniqlash.
7. Nivelir va nivelir reyklarining tuzilishi, tekshirish va nivelirda ishlash.
8. Masshtab turlari va aniqligi.
9. Teodolitda burchak o'lchash usullari.
10. Rel'ef turlar va ularni topografik plan va kartalarda tasvirlash usullari.
11. Texnik nivelelashni bajarish.
12. Lazerli nivelirlar tuzilishi
13. Elektron taxeometrlar
14. Raqamli nivelirlarning tuzilishi
15. Yer tekislash ishlarida lazerli nivelirlardan foydalanish
16. Elektron teodolitlarning tuzilishi
17. Zamonaviy dronlar haqida ma'lumotlar bering
18. Kartalarni ta'rifi, xususiyatlari va ahamiyati.
19. Kartografiya va uning tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Tematik kartografiya.
20. Fan tarixi ma'lum bir makon bilan bog'langan xolda o'rganilishi.
21. Dastlabki kartografik tasvirlar ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lganligi.
22. Geografik kartalarda juda zarur elementlardan biri - yozuvlardir. Ushbu usulda transkripsiyaga e'tibor berish.
23. Geografik nomlar kartalarda to'rt xil shaklda berilishi: maxalliy rasmiy shaklda, fonetik, an'anaviy shakllar va tarjima qilib yozilishi.
24. Mavzuli kartalarni uchta katta guruxga bo'linishi: tabiiy kartalar, ijtimoiy-iktisodiy kartalar, tarixiy kartalar.
25. Geografik kartalarni qamrab olgan xududi bo'yicha, mazmuni, masshtabi, maqsadiga ko'ra tasniflash.
26. Mavzuli kartalarni ikki qismdan tashkil topishi: tabiiy yoki tabiiy geografik kartalar, sotsial-iqtisodiy kartalar.

27. Umumgeografik kartalar xususiyatlariga ko‘ra uch xilga bo‘linishi: topografik kartalar, obzor-topografik kartalar, obzor kartalar.
28. Umumgeografik kartalarning mazmuni bo‘yicha bo‘linishi.
29. Karta tuzish ishlarining ketma-ketligi.
30. Kartaga olish bosqichlari. Tayyorgarlik ishlari, ishni taqsimlash. Mualliflik materiallari va ularning turlari.
31. GAT ining paydo bo‘lishi tarixi qanday?
32. Geoinformatika va kartografiyaning bog‘liqligi nimada?
33. GAT ining tarkibiy qismlari nimadan iborat?
34. Raqamli karta deganda nimani tushunasiz?
35. Vektorli format nima?
36. Rastrli format nima?
37. Elektron karta deganda nimani tushunasiz?
38. GAT ni asosan qanday sohalarga qo‘llash mumkin?
39. Atribut to‘g‘risida tushuncha bering?
40. Geokodlash deb nimaga aytiladi?
41. Koordinatali geokodlash nima uchun qo‘llaniladi?
42. Geomatika to‘g‘risida tushuncha bering.
43. Maxsus GAT dasturlarini nimadan iborat?
44. Maxsus skanerlarning oddiy skanerdan farqi nimadan iborat?
45. Skanerlash orqali hosil bo‘lgan tasvir qanday formatda bo‘ladi va tasvir ishlatish xususiyati qanday ko‘rsatkichlarga bog‘liq?
46. Skanerlashning afzalliklari va yutuqlari nimadan iborat?
47. Rastr va vektor deganda nimani tushunasiz?
48. TIN deganda nimani tushunasiz?
49. Vektorlashning afzalliklari va yutuqlari nimadan iborat?
50. Rastrlashning afzalliklari va yutuqlari nimadan iborat?

60810100 - “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha

1. **O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan agrar siyosat.**
2. **Qishloq xo‘jaligi mashinalari tasniflanishi.**
3. **Tuproqning fizik -mexanik xossalari.**
4. **Tuproqqa ishlov berish usullari.**
5. **Pluglar, ularning ishchi qismlari va turlari.**
6. **Plug ishiga qo‘yiladigan agrotexnik talablar.**
7. **Pluglarni ishga rostdash.**
8. **Tishli tirma, vazifasi, ishchi organlarining turlari**
9. **Tirmalarning turlari va ularning vazifasi.**
10. **Tishli tirma ishiga qo‘yiladigan agrotexnik talablar.**
11. **Disksimon tirmalarning turlari.**
12. **Disklarning asosiy parametrlari.**
13. **Frezaning vazifasi, afzalligi va kamchiligi.**
14. **Kultivatorlar, turlari va tuzilishi.**
15. **Chopiq kultivatorlari.**
16. **Pichan presslagichlarning turlari va sinflanishi.**
17. **Porshenli pichan presslagichlarning tuzilishi va ishlashi.**
18. **O‘rish apparat yuritmasining turlari.**
19. **G‘allani yig‘ishtirish texnologiyalari.**
20. **G‘allani yig‘ishtirishga qo‘yiladigan agrotexnik talablar.**
21. **G‘alla kombaynlarining turlari va sinflanishi.**
22. **Paxta hosilini yig‘ishtirish texnologiyalari.**
23. **Paxta terish mashinalari.**
24. **O‘t oldirish sistemasi tuzilishi va ishlashi**

25. Sovitish sistemasi tuzilishi va ishlashi
26. Moylash sistemasi tuzilishi va ishlashi
27. Ta'minlash sistemasi tuzilishi va ishlashi
28. Traktorlarda 4K×2 nimani anglatadi?
29. Traktorlarda havoni tozalash jarayoni qanday?
30. Zanjirli traktorlarning afzalligi va kamchiligi nimalardan iborat?
31. Sentrafuga moyni qanday qilib tozalaydi?
32. Rul' chervyagi deganda nimani tushunasiz?
33. Moy nasoslaridan birortasini ish prinsipini tushuntirib bering.
34. Gidrosilindrning vazifasi va ish prinsipi qanday?
35. Aqlli texnikalar tushunchasiga izoh bering?
36. Nima sababdan traktorlarning ketingi g'ildiragi diametri oldingisidan katta bo'ladi.
37. Agregat ish unumining birligi qanday?
38. Agregat ish unumini hisoblashda nima sababdan smena vaqtidan foydalanish koefitsienti kiritiladi?
39. Agregat amortizasiya ajratmalarining ma'nosi nimada?
40. Kombayn ish unumiga uning motovilasi kengligining ta'siri bormi?
41. Dala o'lchamlarining agregat ish unumiga ta'siri bormi?
42. Dala nishabligining agregat ish unumiga ta'siri bormi?
43. Agregat ish kengligining agregat ish unumiga ta'siri qanday?
44. Agregat ish tezligining agregat ish unumiga ta'siri qanday?
45. Texnik servisga izoh bering?
46. Texnik servis turlari?
47. Ichki yonuv dvigatellariga ko'rsatiladigan texnik servislari?
48. Shudgorlashda agragatning harakatlanish usuli qanday?
49. Tirmalashda agregatning harakatlanish usuli qanday?
50. Orqa quvvat olish vali to'g'risida gapirib bering

60812300 - "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha

1. Qadim zamonlardan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr ichida O'zbekistonda irrigasiyaning tarixi.
2. Qadim sug'orish maydonlarida dehqonchilik madaniyati.
3. Dastlabki sug'orish tizimlari.
4. Markaziy Osiyoda irrigasiyani rivojlantirishida hashar ishlarini ahamiyati.
5. Feodalizm davrida irrigasiyaning rivojlanishi.
6. Qadim va O'rta asrlardagi gidrotexnika inshootlari.
7. Suv xo'jalik qurilishlari.
8. Irrigasiya ishlarida boshqaruv va suvdan foydalanishni tashkil qilish.
9. O'zbekistonning Sirdaryo xavzasiga kiruvchi xududlarida sug'orma dexkonchilikning rivojlanishi.
10. O'zbekistonning Amudaryo xavzasiga kiruvchi xududlarida sug'orma dexqonchilikning rivojlanishi.
11. Xalq qurilishlari, 1941-1945 yillardagi suv xo'jaligini rivojlanishi va so'nggi yillarda irrigasiyaning ahvoli.
12. Orol fojiasi.
13. Yangi sug'orish tizimiga o'tish va cho'llarni o'zlashtirish davrlari.
14. Suv va suvdan foydalanishga oid xuquqiy hujjatlar.
15. Mustaqil O'zbekistonda irrigasiya ishlari.
16. O'zbekistonda irrigasiyaning hozirgi axvoli.
17. Suv va suvdan foydalanish qonuni.
18. Qishloq va suv xo'jaligidagi yer va suvga oid islohatlar va ularning mohiyati.
19. O'zbekistonda irrigasiyaning rivojlanish istiqbollari.

20. O'zbekistonda suv resurslarini boshkarishning xavza tizimi.
21. Melioratsiya vazifalari va turlari.
22. Sug'orish melioratsiyasi turlari va vazifalari.
23. Orol dengizi basseyni va uning suv resurslari.
24. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonning yer fondi, tuprogi va yerlarning meliorativ xolati.
25. Sug'orish usullari tugrisida tushunchalar.
26. O'zbekiston kishlok xo'jaligi irrigasiyasi va melioratsiyasining hozirgi xolati, istikbollari.
27. O'zbekistonda irrigasiyaning rivojlanish tarixi.
28. Qaysi xujjatga asoslanib, suv resurslarni boshqarishda ma'muriy xududiy prinsiplardan xavza prinsipiga o'tilgan?
29. Qaysi xujjat asosida 2018-2019 yillarga mo'ljalangan irrigasiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarni meliorativ xolatini yaxshilash davlat dasturi tasdiqlangan?
30. O'zbekiston Respublikasining suv qonunchiligini tashkil etuvchi normativ xuquqiy xujjatlarni aytib bering?
31. Tuproqlarning sho'rlanish sabablari nima?
32. Erlarning sho'rlanishi deb nima aytiladi?
33. Melioratsiya nima? Uning faoliyatiga nimalar kiradi?
34. Sizot suvlari - bu nima?
35. Sug'oriladigan yerlarda sho'r yuvish.
36. Ortiqcha namlik va tuzlarning o'simlik rivojiga ta'siri.
37. Zovur - bu nima?
38. Sug'orishning mohiyati.
39. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining qanday muammolari mavjud?
40. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 2020-2030-yillarda suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
41. Nima uchun siz bitirgan texnikumni tanladingiz?
42. Nima uchun oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirishga qaror qildingiz?
43. Nima uchun universitetimizni va shu yo'nalishni tanladingiz?
44. Bakalavr darajasini tugatganingizdan keyin o'zingizni qayerda ko'rasiz?
45. Magistraturada o'qishni davom yettirishni rejalashtiryapsizmi?
46. Sizningcha, oliy o'quv yurtida olingan ta'lim va o'rta maxsus o'quv yurtida olingan ta'lim o'rtasida qanday farq bor?
47. Oilangizda suv yoki dehqonchilik bilan shug'ullanadiganlar bormi? Agar shunday bo'lsa, bu sizning mutaxassislik tanlovingizga ta'sir qildimi?
48. Qishloq xo'jaligida amaliy tajribangiz bormi? Agar shunday bo'lsa, qaysi biri?
49. Sug'orishni qanday turlarini bilasiz ?
50. Siz ushbu ta'lim yo'nalishi nima maqsadda tanladingiz ?

60730900 - "Gidrotexnika qurilishi" (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha

1. Gidrotexnika inshootlarining suv xo'jaligida ahamiyati: «Gidrotexnika inshootlari» ishlashining alohida xususiyatlari, O'rta Osiyo va O'zbekistonda gidrotexnika inshootlari qurilishi, Suv xujaligi qurilishning kelajagi.

2. Gidrotexnika inshootlarning vazifasi, suv oqimi bilan munosabati. Ma'suliyati, qurilish usuli va materiallariga qarab turkumlanishi. Gidrotexnika tarmoqlari va bug'inlari haqida tushuncha: irrigatsiya tarmoqlarida gidrotexnika inshootlarining joylanishi, daryoda quriladigan gidrotexnika inshootlari, energetika tizimlaridagi inshootlar.

3. Gidrotexnika inshootlarining konstruktiv elementlari: kirish va chiqish qanotlari, yon devorlar, ustunlar, ponur, suv urilma, risberma, flyutbet, xizmat ko'prikchalari, choklari.

4. Ochiq suv chiqargichning konstruksiyasi: ponur, suv urilma, risberma, flyutbet, xizmat ko'priklari.

5. Diafragmali, quvurli suv chiqargichning konstruksiyai: kirish, bosimli qismi, bosimsiz qismi, chiqish.
6. To'sish (damlash) inshootlari: joylanishi, vazifasi. To'sish (damlash) inshootlari alohida xususiyatlari, ularning konstruksiyasi, kirish qanotlarining xususiy konstruksiyasi.
7. Kanaldagi inshootlar bug'inlari. Yaqinlashgan va uzoqlashgan kompanovkalar: har bir kompanovka sxemasining afzalliklari va kamchiliklari.
8. Avtomat suv bo'lgichning konstruksiyasi, ularga qo'yiladigan talablar: kirish, chiqish.
9. Ochiq va quvurli rostlash inshootlarining gidravlik hisobi: kirish kengligi, standart kengligi, zatvor turi, quduq uzunligi.
10. Konsol sharsharakning konstruksiyasi. Yuvilish chuqurligini yuvilishdan saqlash tadbirlari: kirish, ponur, suv urilma, flyutbet, xizmat ko'priklari.
11. Tutashtirish inshootlari qirish qismining gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
12. Pog'onali sharsharakning gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
13. Tezoqar novining gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
14. Tezoqar chiqish qismining gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
15. O'zgaruvchan nishablik va profili egri chizikli tezoqarlarning gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
16. Tezoqar-sharsharakning gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
17. Kata g'adir-budurli, eni o'zgaruvchan tezoqar gidravlik hisobi: kirish kenglikgi, standart kengligi, zatvor turi, konstruksiyasi.
18. GTI elementlarining statik hisobi: ta'sir kuchlari, kuch yo'nalishlari.
19. GTIlarining ekspluatatsiyasi va ularni teshirish: ko'z chamali, nazorat o'lchovlari.
20. Temir beton, metall, yog'och shanlorlarning konstruksiyasi: shandorlarni ishlatish, shandor zatvorlari afzalliklari va kamchiliklari.
21. Yassi sirpanuvchi zatvorlarning konstruksiyasi: zaklad qismining konstruksiyasi (Paz ramasi), zichlanishlar, yassi sirpanuvchi zatvorlarning qo'llash joylari.
22. G'ildarakli yassi zatvorlarning konstruksiyasi: tayanch qismining konstruksiyasi, g'ildarakli, sirpanuvchi, qo'llanishi.
23. Ikki qavatli, klapanli zatvorlarning konstruksiyasi: tayanch qismining konstruksiyasi, klapanli, qo'llanishi.
24. Zatvorlarning og'iriligi: ko'tarish kuchi, tushirish kuchi, ushlab turish kuchi.
25. Segment zatvorlarning konstruksiyasi: zatvorlarning tayanch qismi, zilanishlari, tayanchlari, rigellari.
26. Segment zatvorlar rigellarini joylashtirish: tayanch, tushirish kuchi, kutarish kuchi.
27. Suv ombori gidrouzelining vazifasi va tarkibi: to'g'on, suv chiqargich, suv tushirish inshootlari. To'g'onlarning qurilish materialiga va konstruksiyasiga qarab turkumlanishi.
28. Grunt to'g'onlar turlari: maxalliy grunt mavjudligiga, suv o'tkazmaydigan qatlamning chuqurligiga, tanlangan joyning tabiiy sharoiti, to'g'on konstruksiyasi.
29. Grunt to'g'on o'lchamlarini aniqlash: balandligi, qiyaligi, tepasining kengligi, bermalar.
30. Grunt to'g'onning konstruktiv elementlari: ustki va pastki qiyaliklarining mustahkamlash, tepa ʻismining konstruksiyasi, ekran, yadro, ponur. Yadro va ekranni suffoziyadan himoyalash. Grunt to'g'onni asosi va unga qurilgan beton inshootlar bilan tutashtirish.
31. Grunt to'g'onning filtratsiya hisobi: akademik N.N.Pavlovskiy nazariyasi, Darsi tenglamasi.
32. Suv o'tkazmaydigan asosda joylashgan bir jinsli drenajsiz grunt to'g'onning filtratsiya hisobi: filtratsiya sarfi, filtratsiya egri chizi'i.

33. Yarim bosimli sharsharak, qo'llanish sharoiti, vazifasi, joylashuvi, konstruksiyasi: kiruvchi va chiquvchi qanotlar, nov, tushish devori, zina.
34. Konsolli sharsharak, qo'llanish sharoiti, vazifasi, joylashuvi, konstruksiyasi: nov, konsol, tayanch, konsol konstruksiyasi, tayanch turlari.
35. Gidrodinamik tur filtratsiya hisoblash usuli: bosim kamari, oqim chizig'i, sarf kamari, bosim, gradient, sarf, filtratsiya.
36. Suv o'tkazuvchi inshootlar, turi, qo'llanish sharoiti, vazifasi, joylashuvi, konstruksiyasi.
37. Akveduklar:turi, qo'llanish sharoiti, vazifasi, joylashuvi, konstruksiyasi, to'siq turlari, arka tayanchlari, ko'prik konstruksiyali, balka konstruksiyali, nov.
38. Dyukerlar: turi, qo'llanish sharoiti, vazifasi, joylashuvi, konstruksiyasi, to'siq turlari, quvur, er sathi ustida, ostida.
39. Dyuker gidravlik hisobi: bosim, diametr, quvur, yuza, sarf koeffitsienti.
40. Segmentli zatvor, konstruksiyasi ko'tarish kuchini aniqlash: qoplama, rigellar, oyoqlar, tayanchlar, kuch momenti.
41. Suv o'tkazmaydigan asosda joylashgan bir jinsli drenajli grunt to'g'onning filtratsiya hisobi: filtratsiya sarfi, filtratsiya egri chizig'i.
42. Suv o'tkazmaydigan asosda joylashgan ekranli, yadroli grunt to'g'onning filtratsiya hisobi: filtratsiya sarfi, filtratsiya egri chizig'i, virtual usuli.
43. Kanallarda filtratsiyaga qarshi qilinadigan tadbirlar.
44. Suv xo'jaligini boshqarishda dispetcherlik xizmati.
45. Suv xo'jaligi tizimidagi suv o'lchash ishlarini takomillashtirish.
46. Beton to'g'onlarni rekonstruksiya qilish.
47. Kanal tizimini avtomatik boshqarishni takomillashtirish.
48. Gidrotexnik inshootlarini pastki b'efini ta'mirlash.
49. Toshqin suvlarini o'tkazish tadbirlari.
50. Toshqin suvi o'tgach bajariladigan tadbirlar.

60812500 - “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha

1. Kanallarda filtratsiyaga qarshi qilinadigan tadbirlar.
2. Suv xo'jaligini boshqarishda dispetcherlik xizmati.
3. Suv xo'jaligi tizimidagi suv o'lchash ishlarini takomillashtirish.
4. Beton to'g'onlarni rekonstruksiya qilish.
5. Kanal tizimini avtomatik boshqarishni takomillashtirish.
6. Gidrotexnik inshootlarini pastki b'efini ta'mirlash.
7. Toshqin suvlarini o'tkazish tadbirlari.
8. Toshqin suvi o'tgach bajariladigan tadbirlar.
9. Transchegaraviy suv resurslarini taqsimlash qoidalari.
10. Respublikada suv xo'jaligini boshqarish tizimi.
11. “Amudaryo” xavzasi suv xo'jalik birlashmasini vazifasi va tarkibiy tuzilishi.
12. “Sirdaryo” havzasi suv xo'jalik birlashmasini vazifasi va tarkibiy tuzilishi.
13. Suv taqsimoti bo'yicha limitni aniqlash va tasdiqlash.
14. Suv resursi va ularni iste'molchilar bo'yicha taqsimlanishi.
15. Gidromeliorativ tarmoqlarda ta'mirlash ishlari.
16. Respublikamizda amalga oshirilayotgan so'g'orma dexqonchilik tarixi.
17. Xorizm viloyati erlarida so'g'orma dexqonchilikni rivojlanish tarixi.
18. Suvdan foydalanishni qadimiy urf – odatlari.
19. Respublikamizdagi so'g'orma dexqonchilikni bugungi xolati.

20. Suvdan foydalanuvchi soxalar va ular o'rtasida suv resurslarini taqsimlanishi.
21. Qishloq xo'jaligi sohasida qo'llaniladigan gidrotexnik inshootlar.
22. Xavo atmosferasini gidrotexnik inshootlarga ta'siri.
23. Nasoslar va nasos stansiyalarining qisqacha tarixi va ularning O'zbekiston Respublikasi rivojlanishi bilan bog'liq kelajagi.
24. "Nasos", "Nasos agregati", "Nasos qurilmasi" va "Nasos stansiyasi" tushunchalari.
25. Nasoslarning klassifikatsiyasi. Harakat turi va quvvati bo'yicha
26. Nasoslarning klassifikatsiyasi. Suv sarfi va nabori bo'yicha
27. Parrakli nasoslarni rivojlanishi.
28. Nasos kurilmalarining so'rish, xaydash va to'la uzatish balandliklari.
29. Nasosning suv sarfi, nabori,
30. Nasosning foydali va iste'mol quvvati, FIK
31. Parrakli nasoslar tasnifi: Ish g'ildiragining shakli, soni bo'yicha
32. Markazdan qochma nasoslarning ish prinsipi.
33. Nasoslarda markazdan qochma kuchning paydo bulishi va xususiyati.
34. Konsol nasoslarning tuzilishi, ishlash tarzi va asosiy ko'rsatkichlari
35. Suv ikki tomonlama kiruvchi nasoslarning tuzilishi, ishlash tarzi va asosiy ko'rsatkichlari
36. O'qiy nasoslarning tuzilishi, ishlash tarzi va asosiy ko'rsatkichlari
37. Diagonal nasoslarning tuzilishi, ishlash tarzi va asosiy ko'rsatkichlari
38. Vertikal nasoslarning tuzilishi, ishlash tarzi va asosiy ko'rsatkichlari
39. Struyali (suv oqimli) nasoslar.
40. Havo suv ko'targichlari (erliftlar).
41. Suv xo'jaligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari.
42. Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarini boshqarish tizimi.
43. O'zbekiston Respublikasida foydalanib kelinayotgan mashinali suv ko'tarish tizimlari.
44. Mashinali suv ko'tarish sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ustuvor yo'nalishlar.
45. Nasos stansiyalaridan foydalanish ko'rsatkichlari. Nasos stansiyalarining asosiy ko'rsatkichlari va xarakteristikalarini.
46. Nasos stansiyalaridan foydalanishning hozirgi holati.
47. Nasos agregatlarining ish ko'rsatkichlarini pasayish sabablari.
48. Sug'orish tizimlaridagi nasos stansiyalarning ishlash sharoitlari.
49. Nasoslarning ish ko'rsatkichlari pasayishi sabablari.
50. Nasos stansiyalaridan foydalanish, ekspluatatsiya xizmatlarini vazifalari.

60810600 – "Yer kadastrini va yerdan foydalanish" ta'lim yo'nalishi bo'yicha

1. Yer huquqi tushunchasi nimani anglatadi?
2. Yer kadastrining ustuvor ilmiy-uslubiy yo'nalishlari sanab bering
3. Yer monitoringini yuritish tamoyillari.
4. Yer tuzish hujjatlarni rasmiylashtirish va berish?
5. Yer huquqining me'yori tushunchasi nimani anglatadi?
6. Xozirgi kundagi yer kadastrini muammolari qanday hal etilishi kerak?
7. Yer munosabatlarini tartibga solishga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlar.
8. Ta'sir etish kuchi bo'yicha yer huquqi me'yorlari necha xilga bo'linadi?
9. Yer kadastrining itisodiyot tarmolarini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?
10. O'zbekiston yer fondining miqdor tavsifi (toifalari, yer turlari).

11. Yer munosabatlarini tartibga soluvchi qonun xujjatlari tizimi nimalardan tashkil topgan?
12. Davlat yer kadastrini to'rtinchi qonunning amaliyotda qo'llanilishida qanday muammolarga duch kelinmoqda?
13. Yer monitoringini ob'ekti va sub'ekti.
14. Ishchi loyihalashning ob'ektlari va bosqichlari?
15. Konstitutsiyaning qaysi moddalarida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish bilan bog'liq talablar belgilangan?
16. Davlat yer kadastrini qonun qanday vazifalarini bilasiz?
17. Yer monitoringini yuritishga doir asosiy qonun va me'yoriy xujjatlar.
18. Qonunlar tartibga solish bo'yicha qanday xillarga bo'linadi?
19. Davlat yer kadastrini qonun maqsadini yoritib bering.
20. O'zbekiston yer fondining sifat tavsifi.
21. Yer huquqining maxsus ahamiyatidagi qonunlari tarkibiga qaysi qonunlar kiradi?
22. Davlat yer kadastrini qonun ijrosida qanday kamchiliklar bor?
23. Yer monitoringini tushunchasi va maqsadi.
24. Yer huquqining muhofaza ahamiyatidagi qonunlari tarkibiga qaysi qonunlar kiradi?
25. Davlat yer kadastrini yuritish bo'yicha qanday qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarni bilasiz?
26. Yer monitoringini yuritish organlari tizimi.
27. Suv manbaalarini va sug'orish joylarini joylashtirish?
28. Qonun osti normativ xujjatlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi ahamiyati nimada?
29. Davlat yer kadastrini yuritish xalq xo'jaligining qaysi tarmoqlari manfaatdor?
30. Tabiiy, tarixiy va ijtimoiy shart – sharoitlarning yer fondi holatiga ta'siri.
31. Loyihani amalga oshirish?
32. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning qonunchilikda belgilangan qanday turlarini bilasiz?
33. Yer kadastrining tarkibiy qismlarining uzviyligi deganda nimani tushunasiz?
34. Yer monitoringini yuritish bo'yicha davlat organlarining vazifalari.
35. Yer uchastkasiga nisbatan huquqlarni vujudga kelish va bekor bo'lishining qanday asoslari mavjud?
36. Yer kadastrida xujjatlar tuzilishi va tarkibini mohiyatini ochib bering.
37. Yer monitoringining mazmuni.
38. Loyihani iqtisodiy asoslash (meva va uzumchilikda.....)
39. Qaysi qonunchilik hujjatlari yer tuzilishning huquqiy tartibini belgilab beradi?
40. Yerdan foydalanuvchi sub'ektlarda yer kadastrini xujjatlarini rasmiylashtirish qay tartibda bajariladi?
41. Respublika yer fondining tavsiflanishi va undan foydalanish.
42. Qaysi qonunchilik hujjatlari davlat yer kadastrini yuritishning huquqiy tartibini belgilab beradi?
43. Tuman (shaxar) yer kadastrini xujjatlarini rasmiylashtirish qay tartibda bajariladi?
44. Yer monitoringini o'tkazish tamoyillari.
45. Sug'oriladigan madaniy yaylovlar hududlarini tashkil etishning xususiyatlari?
46. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish qanday usullar yordamida amalga oshiriladi?
47. Viloyat yer kadastrini xujjatlarini rasmiylashtirish qay tartibda bajariladi?
48. Yer monitoringining asosiy vazifalari.
49. Yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish zaruriyati nimadan kelib chiqadi?
50. Yer kadastrining asosiy tamoyillariga ta'rif va tavsif bering?